KASSA OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH: AKSIYADORLIK JAMIYATI MISOLIDA

Xalikov Baxrom Shomurovich
TIPU "Iqtisodiyot" kafedrasi v.v.b.dotsenti,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi.
DOI : 10.67620/TIPUjournal.330009

ANNOTATSIYA

Maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida kassa operatsiyalari hisobini tashkil etish va takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Kassa operatsiyalarini hujjatlashtirish, hisobvaraqlarda aks ettirish, analitik hisobni yuritish va ichki nazoratni tashkil etishning amaldagi holati o'rganilgan. "UzAuto Motors" AJning 2024-yilgi moliyaviy hisoboti asosida pul mablag'lari va ular tarkibidagi o'zgarishlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida kassa hisobini raqamlashtirish, riskka asoslangan ichki nazoratni joriy etish hamda kassa operatsiyalarini pul oqimlari hisoboti bilan integratsiyalash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

КАЛИТ СЎЗЛАР

kassa operatsiyalari, pul mablag'lari, buxgalteriya hisobi, aksiyadorlik jamiyati, analitik hisob, ichki nazorat, pul oqimi, raqamlashtirish.

ANNOTATSIYA

В статье исследованы вопросы организации и совершенствования учета кассовых операций в акционерных обществах. Проанализированы документирование кассовых операций, их отражение на счетах бухгалтерского учета, аналитический учет и внутренний контроль. На основе финансовой отчетности АО «UzAuto Motors» за 2024 год проведен анализ денежных средств и изменений в их составе. Разработаны предложения по цифровизации кассового учета, внедрению риск-ориентированного

КАЛИТ СЎЗЛАР

кассовые операции, денежные средства, бухгалтерский учет, акционерное общество, аналитический учет, внутренний контроль, денежный поток, цифровизация.

внутреннего контроля и интеграции кассовых операций с отчетом о движении денежных средств.

ABSTRACT

The article examines the organization and improvement of cash transaction accounting in joint-stock companies. The study analyzes the documentation of cash transactions, their recognition in accounting records, analytical accounting and internal control. Changes in cash and cash equivalents are analyzed based on the 2024 financial statements of JSC "UzAuto Motors". The study develops recommendations for digitalizing cash accounting, introducing risk-based internal control and integrating cash transactions with cash flow reporting.

KEY WORDS

cash transactions, cash and cash equivalents, accounting, joint-stock company, analytical accounting, internal control, cash flow, digitalization.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda pul mablag‘laridan samarali foydalanish alohida ahamiyatga ega. Korxonaning kundalik faoliyatida ish haqi, xizmatlar, xo‘jalik xarajatlari, hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar, mahsulot va xizmatlar uchun tushumlar kabi ko‘plab operatsiyalar pul mablag‘lari harakati bilan bevosita bog‘liq.

Pul mablag‘larining eng likvid aktiv sifatidagi xususiyati ularni hisobga olish va nazorat qilishga nisbatan yuqori talablarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlarida pul mablag‘lari bilan bog‘liq operatsiyalar hajmining yuqoriligi, turli valyutalardan foydalanish, hududiy va tarkibiy bo‘linmalarning mavjudligi kassa hisobini tashkil etish masalasini yanada dolzarb qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning huquqiy asoslarini belgilaydi. Mazkur Qonun asosida ishlab chiqilgan 21-son BHMS xo‘jalik yurituvchi subyektlarda hisobvaraqlar tizimi va ulardan foydalanish tartibini belgilab beradi. [1; 2].

Kassa operatsiyalarini to‘g‘ri tashkil etish nafaqat buxgalteriya yozuvlarining aniqligini, balki korxonaning pul mablag‘lari ustidan ichki nazorat samaradorligini ham belgilaydi. Shu sababli bugungi sharoitda kassa hisobini faqat kirim va chiqim operatsiyalarini qayd etish bilan cheklash emas, balki uni raqamli nazorat, analitik hisob va pul oqimlarini boshqarish tizimi bilan integratsiyalash zarur.

Mavzuning dolzarbligi ham aynan shundan iborat: zamonaviy aksiyadorlik jamiyatida kassa operatsiyalari bo‘yicha hisob ma’lumotlari tezkor, ishonchli, shaffof va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yetarli darajada batafsil bo‘lishi lozim.

Adabiyotlar sharhi

Korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning nazariy asoslari to‘g‘risida O‘zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan.

R.D. Do‘smuratov buxgalteriya hisobining predmeti, metodi, hujjatlashtirish, hisobvaraqlar tizimi va ikkiyoqlama yozuv kabi fundamental masalalarni batafsil yoritgan [8]. B.I. Isroilov va R.O. Xolbekov tomonidan tayyorlangan “Buxgalteriya hisobi nazariyasi” darsligida buxgalteriya hisobini yuritish, tashkil qilish, hisobvaraqlar va hisobot masalalari yoritilgan [9]. K.B. Urazov va M.E. Po‘latovning ilmiy-uslubiy yondashuvlarida buxgalteriya hisobini zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashkil etish va aktivlarning hisobini yuritish masalalariga e’tibor qaratilgan [10].

A.A. Karimov, J.E. Qurbonbayev va S.A. Jumanazarovlarning ishlarida buxgalteriya hisobining nazariy va amaliy asoslari, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy hisobot masalalari keng yoritilgan [11].

Mazkur tadqiqotlarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, pul mablag‘lari va ularning hisobini tashkil etishning nazariy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilgan. Biroq aksiyadorlik jamiyatlarida kassa hisobini raqamlashtirish, riskka asoslangan nazorat, analitik hisobni chuqurlashtirish va pul oqimlari hisoboti bilan integratsiyalash masalalarini yagona tizim sifatida tadqiq etish zarur.

Shu jihatdan mazkur maqolaning ilmiy yondashuvi mavjud nazariy qarashlarni amaliy korxona ma’lumotlari bilan bog‘lash va kassa hisobini takomillashtirishning integratsiyalashgan modelini ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi aksiyadorlik jamiyatlarida kassa operatsiyalari hisobini takomillashtirishning nazariy va amaliy yo‘nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- kassa operatsiyalari hisobining me’yoriy-huquqiy asoslarini o‘rganish;
- pul mablag‘larini hisobga olishning nazariy asoslarini tadqiq qilish;
- aksiyadorlik jamiyatlarida kassa operatsiyalarining hisobga olinishi va nazoratini tahlil qilish;
- “UzAuto Motors” AJ misolida pul mablag‘lari tarkibi va dinamikasini o‘rganish;
- kassa hisobidagi mavjud muammolarni aniqlash;
- analitik hisobni takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

• raqamli kassa nazorati mexanizmini taklif etish;

• kassa operatsiyalarini pul oqimlari hisoboti bilan integratsiyalash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida “UzAuto Motors” AJda pul mablag‘lari va ular harakati bilan bog‘liq hisob jarayonlari olindi.

Tadqiqot predmetini aksiyadorlik jamiyatlarida kassa operatsiyalarini hujjatlashtirish, buxgalteriya hisobida aks ettirish, analitik hisobini yuritish, nazorat qilish va moliyaviy hisobotda yoritish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, taqqoslash, gorizontal tahlil, vertikal tahlil, koeffitsiyentlar usuli, umumlashtirish va iqtisodiy-mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Kassa operatsiyalarining buxgalteriya hisobini tashkil etishda birinchi navbatda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etish lozim.

O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni buxgalteriya hisobini yuritishning asosiy huquqiy bazasi hisoblanadi [1].

2025-yil 1-yanvardan kuchga kirgan 21-son BHMS esa xo‘jalik yurituvchi subyektlarda hisobvaraqlar rejasini qo‘llash va buxgalteriya hisobini tashkil etish tartibini belgilaydi [2]. Agar korxona chet el valyutasidagi pul mablag‘lari bilan operatsiyalarni amalga oshirsa, 22-son BHMSning talablari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur standart 2024-yil 19-dekabrda 3587-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan va 2025-yil 1-yanvardan kuchga kirgan [3].

Shunday qilib, aksiyadorlik jamiyatlarida kassa operatsiyalarini hisobga olishning me’yoriy asosini, avvalo, buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilik, 21-son BHMS va zarur hollarda 22-son BHMS tashkil etadi.

Kassa operatsiyalarini hisobga olishning amaliy jihatlari

Kassa operatsiyalarini hisobga olishda har bir operatsiya tegishli boshlang‘ich hujjat bilan tasdiqlanishi va o‘z vaqtida buxgalteriya hisobida aks ettirilishi lozim.

Kassa operatsiyalarini tashkil etishda quyidagi ketma-ketlikni qo‘llash maqsadga muvofiq:

operatsiya→boshlang‘ich hujjat→ mas’ul shaxs nazorati → buxgalteriya yozuvi → analitik registr → umumlashtirilgan hisobot.

1-jadval

Kassa operatsiyalarining hisobda aks ettirilishining umumiy ko‘rinishi

№	Operatsiya mazmuni	Debet	Kredit

1	Bank hisobvarag‘idan kassaga naqd pul olindi	5010	5110
2	Kassaga tushum kelib tushdi	5010	tegishli daromad hisobvaraqlari
3	Hisobdor shaxs ishlatilmagan summani qaytardi	5010	4200–4290 guruhi
4	Hisobdor shaxsga bo‘nak berildi	4200–4290 guruhi	5010
5	Ish haqi kassadan to‘landi	6710	5010
6	Kassadagi pul bankka topshirildi	5110	5010

Manba: amaldagi 21-son BHMS talablari asosida muallif tomonidan umumlashtirildi.

Mazkur jadval kassa operatsiyalarining asosiy yo‘nalishlarini ifodalaydi. Biroq amaliyotda faqat sintetik hisob ma’lumotlarining mavjudligi boshqaruv qarorlari uchun yetarli emas.

Masalan, kassadagi pulning qaysi bo‘linmaga, qaysi valyutaga, qanday maqsadga va qanday risk darajasiga tegishli ekanligi bo‘yicha analitik ma’lumotlar ham shakllantirilishi lozim.

“Uzauto motors” AJ misolida pul mablag‘lari tahlili

Tadqiqotning amaliy qismida “UzAuto Motors” AJning 2024-yil uchun konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotidan foydalanildi.

Kompaniyaning rasmiy moliyaviy hisobotida 2024-yil 31-dekabr holatiga pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari 42 792 ming AQSh dollari, 2023-yil 31-dekabr holatiga esa 55 522 ming AQSh dollarini tashkil etgani ko‘rsatilgan.

2-jadval

“UzAuto Motors” AJda pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari dinamikasi

№	Ko‘rsatkich	2023-yil	2024-yil	Mutlaq o‘zgarish	O‘zgarish, %
1	Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari	55 522	42 792	-12 730	-22,93
2	Cheklangan pul mablag‘lari	10 561	15 779	+5 218	+49,43

Manba: "UzAuto Motors" AJning 2024-yilgi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti asosida muallif hisob-kitobi.

Hisob-kitobdan ko‘rinib turibdiki, kompaniyaning pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari 2024-yilda 12 730 ming AQSh dollariga kamaygan.

Kamayish sur’ati:

12 730 / 55 522 × 100 = 22,93 %.

Shu bilan birga, cheklangan pul mablag‘lari 10 561 ming AQSh dollaridan 15 779 ming AQSh dollarigacha oshgan.

O‘sish:

15 779 − 10 561 = 5 218 ming AQSh dollari.

Nisbiy o‘sish:

5 218 / 10 561 × 100 = 49,43 %.

Mazkur holat pul mablag‘larini faqat umumiy qoldiq bo‘yicha emas, balki erkin foydalaniladigan va cheklangan pul mablag‘lari kesimida alohida nazorat qilish zarurligini ko‘rsatadi.

"UzAuto Motors" AJning moliyaviy hisobotida 2024-yil oxirida joriy aktivlar tarkibida pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari bilan bir qatorda bank depozitlari hamda cheklangan mablag‘lar alohida ko‘rsatilgan. Xususan, 2024-yil oxirida joriy bank depozitlari 97 480 ming AQSh dollarini, cheklangan pul mablag‘lari 15 779 ming AQSh dollarini tashkil etgan.

Bu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, korxonaning likvid aktivlarini baholashda faqat kassadagi yoki bank hisobvarag‘idagi mablag‘larni hisobga olish yetarli emas.

Korxona uchun quyidagi guruhlashni qo‘llash maqsadga muvofiq:

1. Erkin foydalaniladigan pul mablag‘lari;
2. Cheklangan pul mablag‘lari;
3. Qisqa muddatli bank depozitlari;
4. Pul ekvivalentlari;
5. Xorijiy valyutadagi pul mablag‘lari.

Bunday guruhlash boshqaruvga real likvidlik darajasini aniqroq baholash imkonini beradi.

Amaliyotda kassa hisobining analitik darajasini oshirish uchun hisob ma’lumotlarini bir nechta belgilar bo‘yicha shakllantirish taklif etiladi.

3-jadval

Kassa operatsiyalarini analitik guruhlash

№	Analitik belgi	Guruhlar
1	Valyuta	UZS, USD, EUR va boshqa valyutalar
2	Bo‘linma	Bosh ofis, ishlab chiqarish, filial, boshqa bo‘linma

3	Operatsiya turi	Kirim, chiqim
4	Operatsiya maqsadi	Tushum, ish haqi, xo‘jalik xarajatlari, hisobdorlik va boshqalar
5	Risk darajasi	Past, o‘rta, yuqori
6	Pul oqimi turi	Operatsion, investitsion, moliyaviy

Bunday analitik hisob tizimi rahbariyatga nafaqat kassadagi qoldiqni, balki pul mablag‘larining harakat yo‘nalishini ham baholash imkonini beradi.

Kassa operatsiyalarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda likvid aktivning bevosita harakati yuz beradi. Shu sababli ichki nazorat tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

- operatsiyani amalga oshirish va uni tasdiqlash vakolatlarini ajratish;
- kassir va buxgalter vazifalarini aniq chegaralash;
- kassadagi qoldiqni muntazam inventarizatsiya qilish;
- hujjatlarning to‘liqligini avtomatik tekshirish;
- limitdan ortiq operatsiyalarni alohida nazorat qilish;
- kutilmagan tekshiruvlarni amalga oshirish;
- elektron tasdiqlash tizimidan foydalanish.

Bunda nazoratni barcha operatsiyalarga bir xil darajada qo‘llash o‘rniga riskka asoslangan nazorat tizimidan foydalanish samaraliroq bo‘ladi.

Muallif tomonidan kassa operatsiyalarini risk darajasiga ko‘ra uch guruhga ajratish taklif etiladi.

4-jadval

Kassa operatsiyalarini risk darajasi bo‘yicha nazorat qilish

Risk darajasi	**Operatsiya xususiyati**	**Tavsiya etiladigan nazorat**
Past	Standart, kichik summadagi operatsiya	Avtomatik nazorat
O‘rta	Limitga yaqin yoki nostandart operatsiya	Buxgalter tekshiruvi
Yuqori	Yirik summa, noodatiy operatsiya	Ikki bosqichli tasdiqlash

Yuqori riskli operatsiyalarda quyidagi nazorat mexanizmlarini qo‘llash mumkin:

1. Elektron tasdiqlash;

2. Mas’ul shaxsni identifikatsiya qilish;

3. Boshlang‘ich hujjatni avtomatik tekshirish;

4. Operatsiya summasini belgilangan limit bilan solishtirish;

5. Shubhali operatsiyalar bo‘yicha ichki auditga avtomatik xabar yuborish.

Tadqiqot natijasida aksiyadorlik jamiyatlarida “Raqamli kassa nazorati modeli”ni joriy etish taklif qilinadi.

Model quyidagi ketma-ketlikdan iborat:

Elektron hujjat→avtomatik tekshiruv→risk bahosi→elektron tasdiqlash→buxgalteriya yozuvi→analitik registr→pul oqimi kategoriyasi→ boshqaruv hisoboti.

Ushbu modelning asosiy afzalligi shundaki, operatsiya amalga oshirilgan paytdan boshlab uning moliyaviy hisobotda aks ettirilishigacha bo‘lgan jarayon yagona axborot tizimida kuzatiladi.

Natijada:

- hujjatlarni qayta kiritish kamayadi;
- inson omili bilan bog‘liq xatolar qisqaradi;
- operatsiyalar bo‘yicha elektron iz saqlanadi;
- nazorat tezkor amalga oshiriladi;
- auditor uchun dalillar bazasi shakllanadi.

Kassa hisobini takomillashtirishning yana bir muhim yo‘nalishi-kassa operatsiyalarini pul oqimlari hisoboti bilan integratsiyalashdir.

Har bir operatsiya amalga oshirilganda unga avtomatik ravishda pul oqimi kategoriyasini biriktirish taklif qilinadi.

5-jadval

Pul oqimi kategoriyasi

Kassa operatsiyasi	**Pul oqimi turi**
Mahsulot sotishdan tushum	Operatsion
Ish haqi to‘lovi	Operatsion
Soliq to‘lovi	Operatsion
Asosiy vosita sotib olish	Investitsion
Kredit olish	Moliyaviy
Kreditni qaytarish	Moliyaviy

Mazkur yondashuv pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish jarayonini soddalashtiradi va kassa hisobining boshqaruv ahamiyatini oshiradi.

Kassa hisobini takomillashtirishning mualliflik modeli

Tadqiqot asosida aksiyadorlik jamiyatlari uchun quyidagi model taklif etiladi:

1-bosqich. Kassa operatsiyasini elektron shaklda rasmiylashtirish.

2-bosqich. Hujjatlarning to‘liqligini avtomatik tekshirish.

3-bosqich. Operatsiyaga risk darajasini belgilash.

4-bosqich. Vakolatli shaxs tomonidan elektron tasdiqlash.

5-bosqich. Buxgalteriya yozuvlarini avtomatik shakllantirish.

6-bosqich. Operatsiyani analitik belgilar bo‘yicha guruhlash.

7-bosqich. Pul oqimi turini aniqlash.

8-bosqich. Boshqaruv hisobotiga avtomatik uzatish.

Mazkur modelni quyidagicha ifodalash mumkin:

KO = EH + AT + RB + ET + BY + AH + PO + BH

bu yerda:

KO — kassa operatsiyasining yakuniy hisob jarayoni;

EH — elektron hujjat;

AT — avtomatik tekshiruv;

RB — risk baholash;

ET — elektron tasdiqlash;

BY — buxgalteriya yozuvi;

AH — analitik hisob;

PO — pul oqimi;

BH — boshqaruv hisoboti.

Taklif etilayotgan tizimning iqtisodiy samaradorligi

Kassa operatsiyalarini avtomatlashtirishning iqtisodiy samaradorligini quyidagi formula asosida baholash mumkin:

$$ES = (T_1 - T_2) \times N \times C - I$$

bu yerda:

ES — iqtisodiy samara;

T_1 — bitta operatsiyani an’anaviy usulda qayta ishlash vaqti;

T_2 — bitta operatsiyani avtomatlashtirilgan tizimda qayta ishlash vaqti;

N — yil davomida amalga oshiriladigan operatsiyalar soni;

C — bir soatlik mehnat qiymati;

I — axborot tizimini joriy etish xarajatlari.

Masalan, shartli ravishda korxonada yiliga 20 000 ta kassa operatsiyasi amalga oshiriladi, an’anaviy usulda bitta operatsiyaga 6 daqiqa, avtomatlashtirilgan tizimda esa 2 daqiqa sarflanadi deb olsak:

$$20\,000 \times (6 - 2) / 60 = 1\,333{,}3 \text{ soat.}$$

Demak, yiliga 1 333,3 soat mehnat vaqti tejalishi mumkin.

Agar bir soatlik mehnat qiymati shartli ravishda 50 000 so‘m bo‘lsa:

$$1\,333{,}3 \times 50\,000 = 66{,}7 \text{ mln so‘m.}$$

Mazkur hisob-kitob metodik misol bo‘lib, “UzAuto Motors” AJning haqiqiy iqtisodiy samarasi sifatida talqin qilinmaydi. Amaliy hisob-kitobda korxonaning haqiqiy operatsiyalar soni, mehnat xarajatlari, dasturiy ta’minot va joriy etish xarajatlari olinishi lozim.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi takliflarda namoyon bo‘ladi:

1. Aksiyadorlik jamiyatlarida kassa operatsiyalari hisobini hujjatlashtirish, buxgalteriya yozuvlari, ichki nazorat va pul oqimlari hisobotini yagona tizimga birlashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

2. Kassa operatsiyalarini risk darajasiga ko‘ra tasniflash va yuqori riskli operatsiyalarni ikki bosqichli elektron tasdiqlash mexanizmi taklif etildi.

3. Kassa hisobining analitik darajasini valyuta, bo‘linma, operatsiya maqsadi, risk darajasi va pul oqimi turi bo‘yicha kengaytirish asoslandi.

4. “Raqamli kassa nazorati modeli” ishlab chiqildi.

5. Kassa operatsiyalarini pul oqimlari hisobotining operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat turlari bilan avtomatik bog‘lash taklif etildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati

Taklif etilayotgan mexanizmlarni aksiyadorlik jamiyatlarida qo‘llash:

- kassa operatsiyalarining shaffofligini oshiradi;
- hujjatlarni qayta ishlash vaqtini qisqartiradi;
- inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytiradi;
- yuqori riskli operatsiyalarni tezkor aniqlash imkonini beradi;
- analitik hisob sifatini oshiradi;
- pul oqimlarini boshqarishni yaxshilaydi;
- ichki audit samaradorligini oshiradi;
- rahbariyat uchun tezkor boshqaruv axborotini shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, aksiyadorlik jamiyatlarida kassa operatsiyalari hisobini takomillashtirish masalasiga faqat buxgalteriya yozuvlarining to‘g‘riligini ta’minlash nuqtayi nazaridan yondashish yetarli emas. Zamonaviy sharoitda kassa hisobi pul mablag‘larini boshqarish, ichki nazorat va moliyaviy qarorlar qabul qilish tizimining tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

“UzAuto Motors” AJning 2024-yilgi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2024-yil 31-dekabr holatiga pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari 42 792 ming AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, 2023-yildagi 55 522 ming AQSh dollariga nisbatan 12 730 ming AQSh dollariga yoki 22,93 foizga kamaygan.

Shu bilan birga, cheklangan pul mablag‘lari 2023-yildagi 10 561 ming AQSh dollaridan 2024-yilda 15 779 ming AQSh dollariga oshgan. Bu esa korxonaning pul mablag‘larini boshqarishda ularni erkin foydalaniladigan va cheklangan mablag‘larga ajratib nazorat qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot asosida kassa hisobini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi asosiy takliflar ishlab chiqildi:

Tadqiqot asosida kassa hisobini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi asosiy takliflar ishlab chiqildi:

- kassa operatsiyalarini elektron hujjatlashtirish;
- analitik hisobni valyuta, bo‘linma, operatsiya maqsadi va risk darajasi bo‘yicha kengaytirish;
- riskka asoslangan ichki nazorat tizimini joriy etish;
- yuqori riskli operatsiyalarni ikki bosqichli elektron tasdiqlash;
- “Raqamli kassa nazorati modeli”ni joriy etish;
- kassa operatsiyalarini pul oqimlari kategoriyalari bilan integratsiyalash;
- cheklangan pul mablag‘lari bo‘yicha alohida analitik monitoring tashkil etish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi aksiyadorlik jamiyatlarida kassa operatsiyalarining shaffofligini oshirish, hisob ma’lumotlarining ishonchliligini ta’minlash, ichki nazoratni kuchaytirish va pul mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-404-son, 2016-yil 13-aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-sonli BHMS) “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-noyabrdagi 191-son buyrug‘i. Adliya vazirligida 2024-yil 27-dekabrda 3593-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
3. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (22-sonli BHMS) “Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi”. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 6-dekabrdagi 201-son buyrug‘i. Adliya vazirligida 2024-yil 19-dekabrda 3587-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. PQ-4611-son, 2020-yil 24-fevral.
5. IFRS Foundation. IAS 7: Statement of Cash Flows. – London: IFRS Foundation.
6. IFRS Foundation. IAS 21: The Effects of Changes in Foreign Exchange Rates. – London: IFRS Foundation.

7. Do‘smuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi: darslik. – Toshkent: Yangiyul poligraph service, 2007. – 256 b.
8. Isroilov B.I., Xolbekov R.O. Buxgalteriya hisobi nazariyasi: darslik. – Toshkent: Tafakkur, 2020. – 240 b.
9. Urazov K.B., Po‘latov M.E. Buxgalteriya hisobi: darslik. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020.
10. Karimov A.A., Qurbonbayev J.E., Jumanazarov S.A. Buxgalteriya hisobi: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.
11. Qurbonov Z., Misirov K. Moliyaviy va boshqaruv hisobi: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.
12. “UzAuto Motors” AJ. Consolidated Financial Statements for the year ended 31 December 2024 and Independent Auditor’s Report. – Tashkent, 2025.